



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 18-noyabr, № 240 (9135)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



TARIXIY QARDOSHLIK VA DO'STLIK AN'ANALARIGA ASOSLANGAN STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI IMKONIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov 16-17-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi.



Ko'ksaroy qarorgohida 17-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning tor doiradagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Turkmaniston aloqalari tarixiy qardoshlik va madaniy yaqinlik an'analari muzokaralari bo'lib o'tdi.

Ikki xalq orasidagi qalb ochiqligi va o'zaro hurmat har doim sezilib turadi. Bu, xususan, davlatlararo siyosatda, chegara hududlaridagi

oddiy odamlarning kundalik muloqotida, bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ijobiy dinamika yanada jonlandi. Shunchaki raqamlar yoki rasmiy ko'rsatkichlar emas ikki mamlakatning manfaatlarini mustarakligi ifoda etilmoqda. Savdo aylanmasi jadal o'sishi, qo'shma loyihalar ko'payishi, transport va logistika yo'nalishlarining faol rivojlanishi o'zaro ishonch va ochiqlikning amaliyotdagi aksidir.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston va Turkmaniston munosabatlari Markaziy Osiyoda barqarorlik, yaqinlik va birdamlikni ta'minlovchi muhim tayanch nuqtalardan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu davlat tashrifi so'nggi yillarda namunali tus olgan O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash yo'lida muhim qadam bo'lishi ta'kidlandi.

Barcha sohalarida erishilayotgan ijobiy sur'at va faol aloqalar mamnuniat bilan qayd etildi. Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishlari, shuningdek, madaniy tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Tashrif arafasida Urganch hamda Toshkentda o'tkazilgan Turkmaniston madaniyati kunlari va filmlari namoyishlari ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi oshdi. Yuk tashish ortib bormoqda, jumladan, Turkmanboshi portidan foydalanish faollashgan.

Muzokaralarda o'zaro savdoni ko'paytirish va sanoat, energetika, transport, mashinasozlik, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida samarali kooperatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Hududlararo almashinuylarni yanada kengaytirish muhimligi ta'kidlandi. Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini o'tkazishga kelishib olindi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning muzokaralari kengaytirilgan tarkibda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom etdi.

Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi Turkmaniston Prezidentining davlat tashrifi ikki xalq o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari mustahkamligining yaqqol tasdig'i ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini

yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Savdo, transport, energetika, suv xo'jaligi va boshqa muhim sohalarida amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi.

– Shubhasiz, ushbu yutuqlarda Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi, hurmatli Gurbanguli Berdimuhamedovning ulkan hissasi bor, – dedi Prezidentimiz.

Keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki baravarga ko'payib, 1 milliard dollardan oshdi. Mahsulotlar turini kengaytirish va erkin savdo rejimidan samarali foydalanish orqali bu ko'rsatkichni 2 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

“Shovot – Toshhovuz” chegaraoldi savdo zonasining ishga tushirilishi ham tovar ayirboshlashni ko'paytirishga xizmat qiladi. Ushbu tajribani boshqa manzillarda, birinchi navbatda, “Olot – Farab” hududida qo'llash bo'yicha kelishuvga erishildi.

Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish maqsadida qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa talab yuqori bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishga qaratilgan yangi loyihalarga biznesni faol jalb qilish muhimligi ta'kidlandi.

Energetika sohasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Yanada kengroq loyihalarga o'tish, shu jumladan, istiqbolli konlarni birgalikda o'zlashtirishga kelishib olindi.

Transport sohasi ikki mamlakat iqtisodiyotlarini bog'laydigan muhim bo'g'in hisoblanadi. Yuk tashish hajmi o'sib bormoqda, bojxona-logistika tartiblari soddalashtirilmoqda. Tomonlar Turkmanboshi portini birgalikda

rivojlantirish va poytaxtlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni qayta tiklashga kelishib oldilar.

Erishilgan kelishuvlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash uchun yil oxirigacha Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig'ilishlari o'tkazildi.

Yetakchilar gumanitar soha ko'p qirrali aloqalarning mustahkam poydevori ekanligiga urg'u berdilar.

Hamkorlik sur'atini saqlab qolish uchun tomonlar o'zaro konsertlar va teatrlarning ijodiy safarlarini muntazam ravishda o'tkazish, Xivada Yoshlar forumini tashkil etish va birgalikda filmlar ishlab chiqarish amaliyotini davom ettirishga kelishib oldilar.

Sog'liqni saqlash va tibbiyot fani borasidagi almashinuylar faollashadi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari erishilgan barcha kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli “Yo'l xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan mas'ullarga topshiriq berdilar.

Oliy darajadagi muzokaralardan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov “Shovot – Toshhovuz” qo'shma chegaraoldi savdo zonasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdilar.

Mazkur hududda direksiya, bojxona, karantin, fitosanitariya va veterinariya xizmatlarining ma'muriy binolari, savdo pavilyoni va omborlar joylashgan.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'buat xizmati surati.

AGRAR SOHA RIVOJIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-noyabr kuni paxtachilikda samaradorlikni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Sohaning iqtisodiyotdagi ulushi 20 foizni tashkil etmoqda, unda yiliga 467 trillion so'mlik mahsulot yaratilmoqda, 3,5 million kishi mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, yangi va qayta ishlangan agrar mahsulotlar umumiy eksportning uchdan bir qismini ta'minlamoqda.

Taqdimotda paxtachilikda hosildorlikni oshirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Buning uchun past hosil olayotgan fermerlar bilan manzilli ishlash, ilg'or agrotexnologiyalar va oziqlantirish amaliyotlarini to'g'ri joriy etish, agronom tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralarini belgilab olindi.

Jumladan, paxtachilikda “Ustoz – shogird” an'analarini yo'lga qo'yish orqali hosildorlikni 60 sentnerdan oshirgan ilg'or fermerlarni 30 sentnerdan kam hosil olgan fermerlarga birlashtirish taklif qilindi.

Ilg'or fermerlar Qishloq xo'jaligi malaka oshirish institutida qayta tayyorlanib, ularga sertifikat beriladi. Past hosil olgan fermerlarda hosildorlik kamida 50 sentnerdan oshsa, ularga birlashtirilgan ilg'or fermerlarga 5 million so'mdan mukofot puli beriladi.

Agronomlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Agrar universitet va sohada agronomlarni tayyorlaydigan boshqa oliygohlar bitiruvchilari uchun ikki yillik “dual ta'lim” mexanizmi joriy etiladi. Ilg'or klaster va fermer xo'jaliklarida amaliyot o'tagan talabalarga stipendiya, ularni o'qitgan mutaxassislarga esa rag'bat puli to'lanadi.

Taqdimotda mahalliy paxta navlarini yaratish ishlari ham alohida ko'rib chiqildi.

Yurtimizda paxtachilik bo'yicha ikkita noyob ilmiy institut – Genomika va bioinformatika markazi hamda Paxtachilik

instituti borligi, lekin ularning imkoniyati to'liq ishga solinmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Navlarni seleksiya qilish asosida paxta urug'chiligini yanada rivojlantirish maqsadida ushbu institutlarda fitotron va reproduksion issiqxona qurib berish topshirildi. Natijada yangi mahalliy nav yaratishga kerak bo'lgan vaqt 2,5 barobar qisqaradi, olimlarning ishi tezlashib, import uruqqa ehtiyoj qolmaydi.

G'o'zani plyonka ostiga ekish tajribasini ommalashtirish rejalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz sohada agrodronlardan foydalanishni kengaytirish, bu borada mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ko'rsatib o'tdi.

Qishloq xo'jaligiga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ham kun tartibida bo'ldi. Hozirda Qishloq xo'jaligi vazirligi va xorijiy kompaniyalar hamkorligida bu borada kadrlar tayyorlash va ilmiy infratuzilma yaratish bo'yicha qilinayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi.

2026-yildan paxta-g'alla, mevalar va dukkakli ekinlar bo'yicha hosilni ixtiyoriy sug'urtalash tizimini yo'lga qo'yish, sug'urta mukofotining 50 foizini byudjetdan qoplab berish taklif qilindi.

Subsidiyalarni tizimini soddalashtirish maqsadida hozirda turli idoralar tomonidan berilayotgan 75 turdagi subsidiyani yagona platforma orqali ajratib boradigan Agrar sohada to'lov agentligini tashkil etish tashabbusi bildirildi. Bu fermerlar uchun ortiqcha ovoragarchilik va byurokratiyani keskin kamaytiradi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

Bugun – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan kun

MUZAFFARLIK VA ULUG'VORLIK RAMZI



Bayroq turli ranglaru chiziqlar, belgilardan iborat oddiy mato emas. Tarixdan ham ma'lumki, ushbu muqaddas ramz millat va yurt sha'nini, ishonchi va irodasini, muzaffarlik hamda ulug'vorligini ifodalagan. Aynan bayroq ostida buyuk el birlashgan, ishonchi yanada ortgan, g'oliblik sari ildam odimlagan.

Bugungi osuda zamonda esa davlatimiz bayrog'i turli bellashuvlarda biz kabi sportchilarga so'nmas ishonch bag'ishlaydigan, ruhiy kuch-quvvat beradigan, faqat va faqat zafar sari

olg'a undaydigan ulug'vor timsolga aylangan. Zero, qay yo'nalish yo turda bo'lmasin, istalgan sportchi borki, o'z millati va jonajon Vatani bayrog'ini yuksakda hilpiratishni istaydi. Shunday

maqsad bilan yashayotgan sportchilar orasida ekanimdan faxr tuyaman va ko'zlagan manzilmga yetish uchun betinim harakatdaman.

Deylik, yaqinda milliy jamoamiz bilan birga Belgiyaning Ronse shahrida o'tkazilgan para velosport bo'yicha jahon chempionatida muvaffaqiyatli qatnashib, Osiyo jamoalari orasidagi eng yaxshi natijani qayd etdik.



Parlament diplomatiyasi

BARQAROR IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOT MASALALARI E'TIBORDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Oliy delegatsiya Tadjikiston Respublikasining Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) Parlamentlararo Assambleyasining 59-yalpi majlisida ishtirok etdi.

Yalpi majlisda mintaqaviy parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, qonunchilik tizimini takomillashtirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, majlis davomida parlamentlararo tajriba almashinuvi, model qonunlar va tavsiyalar ishlab chiqish, yoshlar siyosati, huquqni himoya qilish, migratsiya, hududiy xavfsizlik, ekologiya hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik masalalari ham ko'rib chiqildi.

Senat Raisi anjumandagi o'z nutqida Yoshlar parlamenti, odam savdosiga qarshi kurash va jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surdi.

Shuningdek, hududiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda tarixiy xotirani saqlash, yosh avlodga milliy

va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan insonparvarlik loyihalari, jumladan, “Bolalar hamdo'stligi” va “Xotira poyezdi” tashabbuslari o'rtaga tashlandi.

MDH mamlakatlari delegatsiyalari O'zbekistonning faol hamkorligi hamda mintaqaviy loyihalaridagi mas'uliyatli pozitsiyasini alohida ta'kidlab, insonparvarlik tashabbuslari, yoshlar va tarixiy xotirani saqlash yo'nalishidagi ishtirokini yuqori baholadi.

Mazkur majlisda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaviy barqarorlikni kuchaytirish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha kelgusidagi rejalarga asos soluvchi qarorlar qabul qilindi.

Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Huquqiy normalarda inson manfaatlarini ustuvor

Siyosiy partiyalarining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvining mintaqamiz rivojidadagi ahamiyati haqida atroflicha so'z yuritildi.

Deputatlar Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlari formatiga to'la huquqli a'zo sifatida qo'shilganini e'tirof etib, ushbu strategik qadam Maslahat uchrashuvlariga kuchli shiddat berishiga, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni

kengaytirishga, barqaror taraqqiyot masalalari bo'yicha hamijihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar ochishiga ishonch bildirdi.

Shundan so'ng deputatlar fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasini muhokama qildi.

Mazkur qonun loyihasi sud ishlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish va iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan.



TARIXIY QARDOSHLIK VA DO'STLIK AN'ANALARIGA ASOSLANGAN STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI IMKONIYATLARI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bu yerda "yagona darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatiladi, interfaol tizimlar, bank, tibbiyot va mehmonxona xizmatlari uchun zarur infratuzilma, shuningdek, katta avtoturargoh ham tashkil etilgan.

Zona faoliyati umumiy aholisi 3,5 milliondan ziyod bo'lgan ikkita muhim hudud – O'zbekistonning Xorazm viloyati va Turkmanistonning Toshhovuz viloyati o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shundan so'ng Ko'ksaroy qarorgohida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining oliy davlat mukofoti – "Oliy Darajali Do'stlik" ordenini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari nufuzli mukofotni topshirar ekan, ushbu qaror Turkmaniston Prezidentining ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi do'stlik, o'zaro ishonch va strategik sheriklikni mustahkamlashdagi yutuqlariga nisbatan O'zbekiston xalqining samimiy hurmati va e'tirofining ifodasi ekanini ta'kidladi.

– Siz otangiz, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning ishini munosib davom ettirmoqdasiz. Mamlakatingizda xalq farovonligini ta'minlash uchun ishonchli poydevor yaratayotgan keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmogda, – dedi

davlatimiz rahbari.

Joriy yilda Turkmanistonda "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" hamda mamlakat Betaraffligining 30 yilligiga bag'ishlangan yirik tadbirlar o'tkazilmogda.

Serdar Berdimuhamedovning ko'p qirrali O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlari kengaytirishga qo'shgan hissassi mamnuviyat bilan qayd etildi. Bu, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy va hamkorlik aloqalarining har tomonlama rivoj topayotganidir. Ulkan loyiha – "Shovot – Toshhovuz" chegaraldi savdo zonasi ishga tushirildi. Energetika, transport va logistika sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmogda.

Mazkur mukofot mustahkam do'stlik va yaxshi qo'shnichilik ramziga aylanishi qayd etildi. O'z navbatida, Turkmaniston Prezidenti O'zbekiston yetakchisi va xalqiga yuksak e'tirof uchun minnatdorlik bildirdi hamda ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga intilish qat'iy ekanini ta'kidladi.

Samarali muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov Qo'shma bayonot imzoladilar.

Bundan tashqari, davlat rahbarlari huzurida quyidagi ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo'lib o'tdi:

– O'zbekiston – Turkmaniston

chegaraoldi savdo zonasi faoliyati to'g'risidagi shartnoma;

– Sog'liqni saqlash va tibbiyot fani sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim;

– Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risidagi bitim;

– Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi bayonnoma;

– Xalqaro avtomobilda yo'lovchi va yuk tashish to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi bayonnoma;

– Adliya vazirliklari o'rtasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

– Madaniyat sohasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

– Neft mahsulotlari va suyuq kimyoviy yuklarni tashish uchun temir yo'l vagonlarini yetkazib berish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi memorandum;

– Biologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha o'zaro anglashuv memorandum;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligining Xalqaro munosabatlar instituti o'rtasida O'zbekiston – Turkmaniston ekspertlar kengashini tuzish to'g'risidagi memorandum;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligining Xalqaro munosabatlar instituti o'rtasida O'zbekiston – Turkmaniston ekspertlar kengashini tuzish to'g'risidagi memorandum;

Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti hamda Turkmaniston Davlat, huquq va demokratiya instituti o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi memorandum;

– O'rmon xo'jaligi sohasida 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi";

– Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hokimliklari bilan Lebap viloyati hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan Axal viloyati hokimligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan Toshhovuz viloyati hokimligi o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Prezidentimiz ushbu tarixiy davlat tashrifi qardosh mamlakatlarimizning strategik sherikligini yanada mustahkamlab, uni yangi marralarga olib chiqishga ishonch bildirdi.

Muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, suv-energetika va madaniy-gumanitar sohalarda birgalikdagi ishlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Savdo-iqtisodiy va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish muhim yo'nalish sifatida qayd etildi.

Bunda bugun ishga tushirilgan

"Shovot – Toshhovuz" chegaraldi savdo zonasi alohida o'rin tutadi. Tomonlar ushbu tajribani boshqa chegaraldi hududlarda, eng avvalo, "Olot – Farob" hududida qo'llash niyatida.

Mintaqaning transport jihatidan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish maqsadida hukumatlarga avtomobil, temir yo'l va dengiz orqali tashuvlarni rivojlantirish, Turkmanboshi xalqaro dengiz portidan birgalikda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish topshirildi.

Energetika masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Elektr energiyasining yetkazib berilishi va tranziti bo'yicha hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, ikki mamlakat hududida qo'shma loyihalarni amalga oshirish borasida qat'iy intilish borligi ta'kidlandi.

Tomonlar atrof-muhitni muhofaza qilish va sudvan oqilona foydalanish sohasida, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikni rivojlantiradilar.

Yana bir ustuvor yo'nalish – hududlararo hamkorlik. Buxoro va Turkmanobod shaharlarida hududlar forumlari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Yaqinda Xivada ikki mamlakatning barcha viloyatlari ishtirokida uchinchi forum bo'lib o'tadi.

Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari doirasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Kuni kecha Toshkent shahrida

o'tgan yettinchi Maslahat uchrashuvining yakunlari mintaqada integratsiya jarayonlari va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Yakunda hamkorlikni jadal rivojlantirish, qardosh mamlakatlarimiz taraqqiyoti va farovonligi yo'lida ulkan natijalarga erishishga o'zaro intilish qat'iy ekani tasdiqlandi.

Shu kuni Oliy martabali mehmon "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e'tibor qaratildi. Ona Vatanimiz, mard va jasur, tinchliksevar va mehnatkash, qahramon xalqimiz sharafiga bunyod etilgan Mustaqillik monumenti Turkmaniston Prezidenti va delegatsiya a'zolarida katta taassurot qoldirdi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Serdar Berdimuhamedovni "Toshkent-Xumo" xalqaro aeroportida kuzatib qo'ydi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'rganish

O'rmonlardan oqilona foydalanish va cho'llanishning oldini olish qanday kechmogda?

Bugun mamlakatimizda o'rmonlar hududini kengaytirish, yashillik darajasini oshirish orqali iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, cho'llanishga qarshi samarali kurashish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmogda.

Prezidentimiz Farmon va qarorlarida o'rmon fondini muhofaza qilish, ko'paytirish, undan oqilona foydalanish, uning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash, sohaga bozor mexanizmlarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalar ijrosini o'rganish maqsadida Oliy Majlis palatalari tomonidan tuzilgan ishchi guruh Surxondaryo viloyatida amaliy ish olib bormogda.

Ishchi guruh dastavval viloyat hokimligida soha mutaxassislari bilan muloqot o'tkazdi. Unda o'rmonlardan oqilona foydalanish, yashillik darajasini ko'paytirish, o'rmonlarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini

olishga qaratilgan chora-tadbirlar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar hamda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni yetishtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, sohaga oid yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyati xususida ma'lumotlar berildi.

Qonunchilik ijrosini ta'minlashda mas'ul davlat organlari faoliyati, quy tuzilmalardagi ishlar, xotin-qizlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash, ish o'rinlari yaratish holati tahlil qilindi.

Ishchi guruh o'rganishlari davom etmogda.

"Xalq so'zi".

Senator va hayot

Qabul qilingan qonunlar mohiyati tushuntirildi

Oliy Majlis Senati a'zolari mamlakatimiz turli hududlarida barcha yo'nalishdagi islohotlarning amalga oshirilishi, aholi turmush tarzi va muammolarini o'rganib, Senat yalpi yig'ilishlarida ma'qullangan qonunlarning ahamiyatini ularga tushuntirmogda.

Shu maqsadda Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi E. Gadoyev Buxoro viloyatida bo'lib, Senatning o'n birinchi yalpi majlisida ko'rib chiqilgan masalalar va ma'qullangan qonunlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish maqsadida navbatdagi uchrashuvni o'tkazdi.

Ma'lumki, joriy yil 31-oktabr – 1-noyabr kunlari bo'lib o'tgan yalpi majlisida senatorlar 15 ta masalani, jumladan, 14 ta qonunni batafsil muhokama qilgan edi. Uchrashuvda senator ushbu qonunlarning ahamiyati, ularning ijrosini ta'minlashda mahalliy Kengashlar hamda jamoatchilikning o'rni borasida fikr almashdi.

Tadbirda viloyat va Buxoro shahar Kengashlari deputatlari, Kengash kotibiyatlari mutaxassislari, yoshlar maslahat guruh a'zolari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Uchrashuv chog'ida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, yoshlarning jamiyadagi faolligini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi.

Hududlarda qonunlar ijrosini samarali

ta'minlash, aholi turmush darajasini yuksaltirish hamda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surildi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati a'zosi Kobul Tursunov ham Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Tamabaxrin mahallasi faollari, mahalliy Kengash deputatlari, yoshlar va jamoatchilik vakillari bilan ayni masalalarda ochiq muloqot o'tkazdi. Unda aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning bandligini ta'minlash va tashabbuslarini rag'batlantirish, shuningdek, hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida batafsil so'z yuritildi.

Muloqot chog'ida ishtirokchilar qishloq yo'llarini ta'mirlash, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, ijtimoiy obyektlar faoliyatini takomillashtirish, tadbirkorlikni kengaytirish va aholi bandligini ta'minlash borasida o'z taklif hamda murojaatlarini bildirdi.

Senator har bir masala yuzasidan tegishli idora va mutasaddilarga aniq vazifalar belgilab, xalq deputatlari viloyat hamda tuman Kengashlariga ijrosini nazoratga olish yuzasidan tavsiyalar berdi.

"Xalq so'zi".



Shu tariqa Fuqarolik protsessual hamda Iqtisodiy protsessual kodekslariga fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqishga asos bo'luvchi da'vo miqdorini oshirish bo'yicha o'zgartirishlar kiritilmogda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi, umumiy tartibda ko'rilayotgan ishlarning aksariyat qismi soddalashtirilgan tartibda ko'rilishi va bu ishlar bo'yicha sud qarorlarining kuchga kirish muddati 30 kundan 10 kunga qisqarishi natijasida banklar balansidagi harakatsiz va muammoli aktivlar ulushi kamayib, iqtisodiy nizolar tezroq hal etiladi.

Fraksiya a'zolari Muhsinjon Xolmuhamedov, Jasurbek Shodiye va



boshqalar qonun loyihasida nazarda tutilayotgan normalar bo'yicha o'z nuqtayi nazarini bildirib, partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar berdi.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvining ahamiyati, unda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar xususida so'z yuritildi.

Markaziy Osiyoda so'nggi yillarda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bir paytlar o'zaro inqirozlar hududi sifatida ko'rilgan mintaqada bugun haqiqiy ma'noda yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslangan qardoshlik rishtalari qaror topdi. Barcha muammolar hamjihatlikda bartaraf etilib, umumiy maqsadlar sari

dunyoga namuna bo'ladigan darajada harakat qilinmogda.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov bularning barchasini Yangi O'zbekiston islohotlari natijasi bilan bog'lab, partiyaning saylovoldi dasturida ham Markaziy Osiyoda tinchlik va totuvlikni

mustahkamlash, qardosh xalqlar o'rtasida birdamlikni qaror toptirish bo'yicha qator vazifalar belgilanganini ta'kidladi.

Shundan so'ng kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari, jumladan, "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunchilik taklifi muhokama qilindi.

Mazkur taklif bilan havola etilayotgan normalar jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlanayotgan shaxslar huquq va erkinliklarini ta'minlashni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Fraksiya a'zolari bu kabi qonunchilik takliflari inson huquqlarini himoya qilish sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un ekanini ta'kidladi.

Shuningdek, ushbu loyiha qamoqqa olingan shaxslarni axloqan tuzatish ishlari samaradorligini oshirishga, milliy qonunchilikni xalqaro tajribaga muvofiqlashtirishga qaratilgan bilan ahamiyatli ekani qayd etilib, deputatlar

to'monidan qo'llab-quvvatlandi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimizning "Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida" nomli maqolasida ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi.

Deputatlar ushbu maqolani nafaqat mintaqaviy hamkorlikni institutsional asosda chuqurlashtirishga qaratilgan strategik hujjat, balki uzoqni ko'zlagan amaliy siyosiy konsepsiya sifatida yuqori baholadi.

Shundan so'ng "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Bu bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga tegishli qo'shimcha va o'zgartirish kiritilmogda.

Muhokamalar davomida fraksiya a'zolari Manzura Salimova



muhammadan o'tkazildi.

Aytilganidek, 2030-yilga qadar qishloq xo'jaligida suv tejavchi texnologiyalarni to'liq joriy qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Agrosektorda bu texnologiyalar qo'llanilishi 2017-yildagi 28 ming gektardan 2024-yilga kelib 2,1 mln. gektarga yetgan. 2025-yilning o'tgan davrida esa 678,8 ming gektarda yangi texnologiyalar joriy etilgan.

Shuningdek, tomchilatib, yomg'irlatib va diskret usullardagi sug'orish texnologiyalari keng joriy qilinishi hisobiga suv sarfini 40 – 50 foizga, mineral o'g'itlar sarfini 25 – 30 foizga, yoqilg'i-moylash materiallarini 30 – 35 foizga kamaytirish, bir vaqtning o'zida hosildorlikni 30 – 50 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Shu bilan birga, deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarida, saylov okruginidagi o'rganishlarida ayrim hududlarda suv taqchilligi kuzatilayotgani, ba'zi joylarda esa ushbu ne'matdan samarasiz foydalanilayotgani, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishda ayrim kamchiliklar mavjudligi ta'kidlanib, qonun loyihasi o'zaro qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Suv xo'jaligi vazirining "2025 – 2028-yillarga mo'ljallangan suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish dasturining ijrosi, suv

"Xalq so'zi".

MINTAQAVIY JIPSLIKNI MUSTAHKAMLASH YOʻLIDA

Markaziy Osiyo davlatlari bir-biriga boy madaniy merosi, umumiy iqtisodiy maqsadlari bilan bogʻlangan boʻlib, u soʻnggi sakkiz yil mobaynida oʻzining yangi, yuksalish bosqichiga qadam qoʻydi. Mintaqa mamlakatlari oʻrtasida oʻzaro ishonch, yaxshi koʻshnichilik va samimiy hurmatga asoslangan haqiqiy birdamlik muhiti shakllandi.

Prezidentimiz raisligida boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi oʻzaro ishonch, iqtisodiy va maʼnaviy-maʼrifiy hamkorlikni mustahkamlash, ekologik barqarorlik hamda mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlashning yangi bosqichi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Bu uchrashuvda qabul qilingan qarorlar, ilgari surilgan tashabbuslar va belgilab olingan vazifalar bizning umumiy kelajakni qanday koʻzlayotganimizga juda yorqin misol boʻla oladi.

Mazkur tarixiy anjuman nafaqat

mintaqaning, balki kengroq maʼnoda Yevroosiyo geosiyosiy makonining ham yangi strategik bosqichga qadam qoʻyganini namoyon etdi.

Unda Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlar, ularning ilmiy va maʼnaviy maʼrifati uchun jozibador maskanga aylanishi alohida eʼtirof etildi. Ilmiy bilimlar va gʻoyalar yaratish, tadqiqotlar olib borish, umumiy madaniy-tarixiy merosimizni ommalashtirish

uchun noyob platforma sanalgan ushbu markaz qardosh mamlakatlar yoshlarining ham ilmiy va maʼnaviy yuksalishi uchun xizmat qiladigan maskanga aylanishiga umid bildirildi.

Mintaqamiz ming yillar davomida buyuk gʻoyalari yaratiladigan, xalqlarni madaniy va maʼnaviy jihatdan oʻzaro boyitadigan markazlardan biri boʻlib kelgan.

Anjuman arafasida Toshkentda oʻtkazilgan maʼnaviy meros va maʼrifatparvarlik gʻoyalariga bagʻishlangan birinchi Xalqaro kongress millatlararo doʻstlikni mustahkamlashga xizmat qilishi alohida eʼtirof etilib, bunday uchrashuvlarni muntazam ravishda har yili raislik qiluvchi mamlakatda oʻtkazib borishga kelishib olindi. Ishtirokchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining mintaqamiz

taniqli olim va mutafakkirlarining global maʼrifatparvarlik rivojiga qoʻshgan hissasiga bagʻishlangan Maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish borasida Oʻzbekistonning tashabbusini qoʻllab-quvvatlashlarini bildirdi.

Mazkur tarixiy sammit nafaqat iqtisodiy hamkorlikni kengaytiradi, balki aholining turmush darajasini oshirish, taʼlim, sogʻliqni saqlash, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar sohasida tajriba almashish, birgalikda loyihalarni amalga oshirishda dasturilamal boʻlib xizmat qiladi. Negaki, unda imzolangan hujjatlar va ilgari surilayotgan tashabbuslarda barqaror, xavfsiz va farovon Markaziy Osiyoni barpo etishdek umumiy maqsad mujassam.

Maryam NIYAZOVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.



Musobaqaning eng hayajonli va unutilmas daqiqalari, albatta, taqdirlanish jarayonida yuz berdi. Jahon arenasida avvaliga davlatimiz madhiyasi yangradi, soʻngra bayrogʻimiz yuksak koʻtarildi. Xayolimdanda "Axir men sabab Oʻzbekiston bayrogʻi baland koʻtarilmoqda!" degan oʻy kechar ekan, beixtiyor koʻzlarim yoshlandi, yuragim hapriqib ketdi. Axir ona Vatanimi sidqidildan yaxshi koʻradigan bir farzandga shundan ortiq baxt boʻlishi mumkinmi?!



Albatta, bundan keyingi rejalarimiz ham yanada ulkan va ishonamizki, ular erishajak yutuqlarimiz sababchisi boʻladi. Ayni kunlarda 2026-yilgi yozgi Paraosiyo oʻyinlari va oldindagi toʻrt yillikning eng muhim musobaqasi – Los-Anjelesda oʻtkaziladigan 2028-yilgi yozgi Paralimpiya oʻyinlarida munosib ishtirok etish uchun tayyorgarlik koʻryapmiz. Ushbu bellashuvlarda qatnashishdan bosh maqsadimiz esa soʻnmas ishonchimiz ifodasi boʻlgan jonajon bayrogʻimizni yuksaklarda hilpiratish va ona yurtimiz nomini dunyoga yanada tanitishdan iborat.

Marjona PARDABOYEVA,
Para velosport boʻyicha jahon
chempionati kumush medal sohibasi.

Anjuman

Oʻzini tez oqlaydigan sarmoya

Sayyoramizning uchdan ikki qismi suv bilan qoplangan boʻlsa-da, uning juda katta qismi shoʻrligi bois ishlatishga yaroqsiz. Chuchuk suv hajmi shu qadar kamki, yildan-yilga aholi koʻpayishi, oziq-ovqatga talabning kuchayishi sababli sugʻorishda ham, isteʼmolda ham uning qadri oshib boryapti.

Ana shu sababli obihayotdan yuqori darajada tejamkorlik bilan foydalanishga oʻtish, innovatsiya hamda zamonaviy yondashuvlar, qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish oʻta muhim.

Poytaxtimizda Oʻzbekiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli olimlar, soha mutaxassislari ishtirokida oʻtkazilgan xalqaro anjumanda shu haqda soʻz boʻrdi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston barcha sohada, xususan, suv masalasiga aloqador yangi tashabbuslarni ilgari surmoqda, – deydi Osiyo taraqqiyot banki loyihalarni boshqarish boʻlimi rahbari Januar Laude. – Biz bu sohaga bejiz sarmoya kiritayotganimiz yoʻq. Chunki sugʻorish tizimining takomillashuvi, mazkur yoʻnalishga eʼtibor juda tez fursatda oʻzini oqlaydi. Ayniqsa, Oʻzbekiston Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida yakdillikni taʼminlashga intilayotgani va bu borada ijobiy natijalarga erishilayotgani chet ellik investorlar uchun mamlakat jozibadorligini oshirmoqda.

Konferensiyada ishtirokchilarning eʼtibori Oʻzbekiston Respublikasining yangi Suv kodeksiga qaratildi. Mazkur hujjat barqaror suvdan foydalanish, sohani tartibga solishni shaffoflashtirish va suv ekotizimlarini himoya qilish boʻyicha huquqiy asos kafolatidir. Xalqaro ekspertlar taʼkidlaganidek, Markaziy Osiyo davlatlari suv xoʻjaligi vazirlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining mazkur anjumanda qatnashishi mintaqaviy hamkorlikning yana bir namunasi boʻldi va bu umumiy suv muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Anjumanda suvni tejash boʻyicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, Orolboʻyi hududidagi aholini har tomonlama qoʻllab-quvvatlovchi dasturlar qamrovini kengaytirish boʻyicha qoʻshma tashabbuslar muhokama qilindi. Shuningdek, notiqlar suv tarmogʻini moliyalashtirish va irrigatsiya infratuzilmasini, suv taʼminoti va sanitar holatni modernizatsiyalash uchun yanada koʻproq investitsiya jalb etish lozimligini taʼkidladi.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq soʻzi").

ELEKTRON SAVDO ISTIQBOLI

Yashirishning hojati yoʻq, soʻnggi oʻttiz yillikda Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi xalqaro munosabatlar barqaror va ochiq muloqot asosida kechmadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida chegaraviy masalalar, suv resurslaridan foydalanish, transport va iqtisodiy manfaatlar toʻqnashuvi kabi muammolar natijasida qoʻshni davlatlar orasida maʼlum darajada yopiqlik, uzilish holati kuzatildi. Bu esa mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati toʻliq roʻyobga chiqishini cheklab, uzoq yillik integratsiya jarayonlari surʼatini pasaytirdi.

Bugungi kunda esa vaziyat tamomila ijobiy tus olgan. Markaziy Osiyo geosiyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy integratsiya nuqtayi nazaridan yangi tarixiy bosqichga qadam qoʻymoqda. Bu yangi davrning amaliy belgisi sifatida joriy yilning 15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvini keltirish mumkin. Sammit doirasida davlat rahbarlari mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga koʻtarish, strategik aloqalarni mustahkamlash va barqarorlikni taʼminlash masalalarini atroflicha muhokama qildi.

Xususan, xavfsizlik, transport va energetika infratuzilmasi, suv resurslarini samarali boshqarish, elektron savdo va investitsiya sohalarida integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish muhim yoʻnalish sifatida belgilab olindi. Shuningdek, davlatimiz rahbari savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yangi sifat bosqichiga koʻtarishda elektron savdo salohiyatidan keng foydalanish muhimligini taʼkidlab, turli hisob-kitoblarga koʻra, Markaziy Osiyo elektron savdo bozori yaqin oʻn yillikda 150 milliard dollargacha oʻsishi mumkinligini maʼlum qildi. Bu raqamlar mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda katta istiqbol borligini koʻrsatadi.

Shu munosabat bilan mavjud yondashuvlarni uygʻunlashtirish, virtual savdo maydonchalari va ishonchli raqamli toʻlov tizimlarini yaratish orqali elektron tijoratni rivojlantirish boʻyicha qoʻshma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish taklif etildi. Aytish kerakki, ushbu tashabbus mintaqaviy integratsiyani amaliy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi. Umuman, elektron savdo va raqamli integratsiyada jahon tajribasiga nazar tashlasak, bu borada koʻplab

muvaffaqiyatli misollar borligiga amin boʻlamiz.

Aytaylik, Yevropa Ittifoqi davlatlari yagona raqamli bozor va barqaror toʻlov tizimlari orqali mintaqaviy savdoni rivojlantirib, tashqi investitsiyalarni jalb qildi. Sharqiy Osiyoda Singapur va Janubiy Koreya elektron savdo platformalari va virtual bozorlar orqali milliy kompaniyalarni xalqaro bozorga jalb etishda muvaffaqiyatga erishdi. Afrika davlatlari raqamli savdo maydonchalari va mobil toʻlovlar orqali qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksportini kengaytirib, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamladi. Bu tajribalar Markaziy Osiyo uchun ham namuna boʻlib, raqamli savdoni samarali va xavfsiz shaklda joriy qilish orqali iqtisodiy integratsiyani tezlashtirish imkoniyatini koʻrsatadi.

Albatta, mintaqaviy elektron savdoni rivojlantirishda parlament va mahalliy deputatlar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Elektron savdo va raqamli platforma faoliyati uchun zarur qonunchilik va reglamentlarni ishlab chiqish, mahalliy va mintaqaviy elektron bozorlarning rivojlanishi uchun jamoatchilik fikrini qoʻllab-quvvatlash va huquqiy mexanizmlar yaratish elektron savdoning barqaror rivojlanishi, mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Yettinchi Maslahat uchrashuvi Markaziy Osiyodagi davlatlar rahbarlari oʻrtasidagi ishonch va qardoshlikni mustahkamlab, mintaqaviy hamkorlikning institutsional asoslarini yaratishga ham xizmat qildi. Mazkur sammitda ilgari surilgan tashabbuslar va kelishilgan qarorlar amalga oshirilganda, Markaziy Osiyo kelajakda barqaror taraqqiyot, iqtisodiy oʻsish va global maydonda eʼtiborli taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi.

Robaxon MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi "Adolat" SDP
fraksiyasi rahbari.

BIZNING KUCHIMIZ – BIRLIKDA!

Poytaxtimizda boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqadagi eng dolzarb masalalar boʻyicha kelishuvga erishilgani bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Uchrashuvda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va qoʻshma loyihalarni ijro etish masalalariga eʼtibor qaratildi. Prezidentlar iqtisodiyot, madaniyat, xavfsizlik va albatta, ekologiya bilan bogʻliq masalalarni muhokama qildi.

Ozarbajon Respublikasining Maslahat uchrashuvlari formatiga toʻla huquqli aʼzo sifatida qoʻshilgani bu tuzilma salohiyatining sezilarli oshayotganidan darak beradi. Zotan, ushbu davlat bilan nafaqat tarixiy ildizimiz biri, balki bugun turkiy davlatlar doirasida sherik ekanimiz, maʼnaviy birligimiz bizni allaqachon qon-qardosh xalqlarga aylantirib bogʻlangan. Mamlakatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, bu mushtarak tarix, qardoshlik rishtalari, maʼnaviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bogʻlangan xalqlarimiz manfaatlariga toʻliq javob beradi.

Prezidentimiz mintaqa davlatlarining kelgusi hamkorligi uchun dolzarb boʻlib turgan qator tashabbus va takliflarni bayon etdi.

Avvalo, aytish kerakki, Maslahat uchrashuvi formati oʻzining tarixiy missiyasidan yuqorilab ketdi. U tom maʼnoda mintaqaviy hamkorlik tuzilmasi darajasiga koʻtarildi. Shuni inobatga olib, sammitda uni "Markaziy Osiyo hamjamiyati" strategik platformasiga aylantirish taklifi ilgari surildi.

Mintaqa davlatlari oʻzaro savdo hajmini 1,5-2 karra oshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun 2035-yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladigan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini ishlab chiqish, Markaziy Osiyoda yagona investitsiya makonini shakllantirish, elektron tijoratni rivojlantirish takliflari mamlakatlarimiz kelajagi uchun alohida ahamiyatlidir.

Navbatdagi tashabbus infratuzilma va transportga tegishli boʻldi. Aytish kerakki, mahsulot olib chiqishda ham, olib kirishda ham transport vositasi va yoʻl kerak. Oʻzbekiston Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston

temir yoʻli, Transafgʻon yoʻlagi va Transkaspий yoʻnalishlarini kengaytirish kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda mintaqa davlatlarini birgalikda harakat qilishga chaqirdi. Infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha Kengash tuzishni taklif etdi.

Transafgʻon yoʻlagining oʻzini qisqacha tahlil qiladigan boʻlsak, ijobiy tomonlari darhol namoyon boʻladi. Birinchidan, Hind okeani va Fors koʻrfazi bandargohlariga masofa qisqaradi. Yoqilgʻi, texnika resurslari, eng muhimi, vaqt tejaladi. Ekologiya kamroq zarar koʻradi. Masalaning ikkinchi tomoni ijtimoiy ahamiyatga ega. Yoʻlsozlik quruq yoʻl qurilishidan iborat emasligini barchamiz yaxshi bilamiz. Yoʻl barpo etilar ekan, uning boʻyida kafe-restaurantlar, mehmonxona va motellar, doʻkonlar, dam olish maskanlari va boshqa turdagi infratuzilma obyektlari, masjidlar quriladi. Bu bilan minglab odamlar ish bilan taʼminlanadi.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkamligi muayyan jihatdan Afgʻonistondagi vaziyatga bogʻliq. Hozir bu mamlakat ancha osuda hayot kechirmoqda. Lekin bu osudalilikni uzoq muddatli asosda kafolatlash kerak. Buning uchun Afgʻonistonni toʻlaligicha tinch hayotga qaytarish taqozo etiladi. Sammit ishtirokchilariga Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi hamda Tahdidlar va xavflar katalogini taqdim etgan Oʻzbekiston rahbari shuning uchun ham Afgʻonistonni mintaqaviy energetika va transport loyihalariga imkon qadar chuqur integratsiyalash muhimligini taʼkidladi.

Albatta, Markaziy Osiyodek murakkab ekologik vaziyatga ega mintaqa davlatlari rahbarlari bir davraga yigʻilar ekan, iqlim va suv masalalari kun tartibiga chiqadi. Sammitda Prezidentimiz 2026 – 2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish boʻyicha amaliy harakatlar oʻn yilligi" deb eʼlon qilishni, shuningdek, Suv xoʻjaligi sohasida kompetensiyalar mintaqaviy

markazini tashkil etishni taklif qildi.

Bilamizki, suv resurslari Qirgʻiziston va Tojikistondan keladi, eng katta isteʼmolchilar – Oʻzbekiston va Qozogʻiston. Lekin hali-hanuz qaysi davlat qachon, qancha suv isteʼmol qilishining aniq umumiy hisob-kitobi yoʻq. Toʻgʻri, isteʼmolchi davlatlar, asosan, vegetatsiya davrida katta ehtiyoj sezadi, lekin baʼzan qayerdadir gidroenergetik maqsadlarda ham suv ishlatiladi. Koʻrsatkichlar esa oʻta yuzaki. Qishloq xoʻjaligi, gidroenergetika va sanoatni umumimintaqaviy asosda prognozlash, bunga faqat shu soha odamlari emas, balki marketologlar, fermerlar, tashqi savdo muassasalari, transport korxonalari hamda boshqa manfaatdor sohalar vakillarini jalb etish orqali aniq manzara hosil qilinsa, belgilanadigan chora-tadbirlarning samaradorligi yana ham yuqori boʻladi.

Suv muammosining oʻtkir ijtimoiy jihatlari ham bor. Biz, Markaziy Osiyo xalqlari, hali-hanuz suvdan tejamli foydalanish usullarini toʻliq oʻzlashtira olganimiz yoʻq. Kundalik hayotda ham suv tejamkorligi sharoitimiz talab qilayotgan darajada emas. Vaholanki, sharoit taqozo etmagan taqdirda ham ekologik madaniyatimizning oʻzi bizni resurslardan unumli foydalanishga undab turishi kerak.

Oʻzbekiston tashabbuslari amaliy hayotda oʻz inʼikosini topsa, mintaqadagi barcha xalqlar yuksak ekologik madaniyat egalariqa aylansa, bu muammolar ham hal boʻladi, albatta. Chunki biz, Markaziy Osiyo ahli, bugun chinakamiga birlashganmiz, jipslashganmiz. Yechimi yoʻqdek koʻringan qanchadan-qancha muammolarga birgalikda barham berdik. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, "Bizning kuchimiz – birlikda, muvaffaqiyat sari yoʻlimiz – doʻstlik va hamkorlikda".

Abdushukr HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi Oʻzbekiston
Ekologik partiyasi fraksiyasi
rahbari.

TOYLOQDA ASALARICHILIK FESTIVALI

Toyloq tumanida azaldan dehqonchilik va bogʻdorchilik aholi turmush tarzining ajralmas qismi boʻlib kelgan. Keyingi yillarda asalarichilik tarmogʻi ham rivoj topib bormoqda. Shu oʻrinda nafaqat respublikamiz ichki bozorlarida, balki xorijiy mamlakatlarda ham xaridorlarga "Toyloq asali" nomi tanilib ulgurani eʼtiborga molik.



Ibrat

Ilk bor tashkil etilgan "Toyloq asalarichilik festivali – 2025" doirasida yetti xazinaning biri – asal-arichilik sohasining salohiyati, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tajribasi va asal mahsulotining xilmaxilligi keng jamoatchilikka namoyish qilindi.

Ilmobod mahallasidagi "Dargʻom" oʻrmon xoʻjaligi hududida oʻtkazilgan festivalda ekoturizm yoʻnalishida Toyloq tumani imkoniyatlari, tabiiy asal, propolis va boshqa mahsulotlarning tayyorlanish jarayoni, sifat koʻrsatkichlari hamda foydali xususiyatlari haqida batafsil maʼlumotlar taqdim etildi.

Asalarichilik sohasida koʻp yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan "Orzu Olim Dimurod asallari" fermer xoʻjaligida 500 qutida asalari oilasi jamlangan boʻlib, bir mavsumda 10 tonnadan ortiq asal

yetishtiriladi. Tadbirda shu xoʻjalik rahbari Orifjon Ilyosovga Intellektual mulk departamentidan roʻyxatdan oʻtkazilgan "Orif bobo asallari" tovar belgisi hamda esdalik sovgʻasi tantanali topshirildi.

Xalqimiz dasturxoniga toza, sifatli va servitamin asal yetkazib berish bilan birga yangi asal-ari oilalarini koʻpaytirishni maqsad qilganmiz, – deydi "Doʻstlik" ordeni sohibi Orifjon Ilyosov. – Bugungi kunda fermer xoʻjaligimizda 10 nafardan ziyod yoshlar ish bilan taʼminlangan. Naslchilik laboratoriyasini ham tashkil etyapmiz. Mahsulotimiz yurtimizning barcha hududiga yetkazib beriladi. Qolaversa, tizimdagi qator tanlovlarda gʻoliblikni qoʻliga kiritib kelyapmiz. Bugun mehnatimiz munosib taqdirlanayotganidan xursandmiz.

Tumanda yakka tartibda



oʻz xonadonlarida asalari parvarishlayotgan dehqon xoʻjaliklari safi ham kengayib boryapti.

Asalarichilik mehnati ogʻir, oʻziga yarasha qiyinchiligi bor, ammo daromadli zoʻr, – deydi "Shokirov Elyor" dehqon xoʻjaligi rahbari Elyor Shokirov. – Asal yetishtirib yaxshigina qoʻshimcha daromad olyapmiz. Chunki oʻzimizdan ortganini sotyapmizda. Asal – ming dardga davo boʻlgan tabiatning eng nodir neʼmatlaridan biri. Uning sogʻliq uchun foydali ekan

amaliyotda allaqachon isbotlangan. Immunitetni koʻtarib, organizmni tozalashining oʻziyoq inson uchun kifoya.

Festival davomida seminar tashkil etilib, unda tajribali asalarichilar hamda mutaxassislar tomonidan sohaning bugungi holati, istiqbollari va innovatsion yondashuvlar muhokama qilindi.

Hududning ekologik turizmini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlariga bagʻishlangan

taqdimot ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Festival orqali asalarichilikni targʻib qilish, tajriba almashish bilan birga soʻlim "Dargʻom" oʻrmon xoʻjaligi hududini dam olish maskaniga aylantirish, xorijlik va mahalliy sayyohlarni jalb etish rejalashtirilgan. Shuningdek, maxsus "Asalarilar yoʻli" deb nomlangan ekologik turizm yoʻnalishini tashkil qilish koʻzda tutilmoqda.

Festival doirasida asal koʻrgazmasi va degustatsiyasi, bolalar uchun "Men asal rasmini chizaman" musobaqasi, hunarmandlar yarmarkasi, konsert, dorboz va boshqa koʻngil-ochar dasturlar uyushtirildi. Yurtimizning turli hududlaridan kelgan eng faol asalarichilar, "Eng obod mahalla" va "Eng obod tashkilot" tanlovlari gʻoliblariga esdalik sovgʻalar topshirildi.

Yana bir eʼtiborli jihat shundaki, oʻsha kuni "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida koʻchatlar koʻrgazmasi ham tashkil qilinib, tuman hududida Yoshlar bogʻini yaratishga kirishildi.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV
("Xalq soʻzi").

Hozirgi kunda sovuq tushishi bilan gripp, tumov, shamollash kabi kasalliklar avj olmoqda. Bunday holatda bemorlar darrov dorixonadan sintetik dorilarni izlashga shoshilmay, tabiiy vositalar yordamida samarali davolanishi mumkin. Jumladan, behi mevasi tarkibi vitaminlar, minerallar, shamollash va virusli kasalliklarga qarshi kurashuvchi tabiiy birikmalarga boy bo'lib, undan nafaqat kattalar, ayniqsa, homilador ayollar va yosh bolalardagi shamollashda samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Salomatlik



Ulug' hakim Abu Ali ibn Sino bemorga shunday degan ekan: "Biz uch kishimiz: sen, men va dard. Agar ikkalamiz birlashsak, dardni yengishga qodir bo'lamiz". Buyuk ajdodimiz ushbu hikmati orqali bemorning, avvalo, o'zi tuzalishga intilishi lozimligini uqtiradi. "Tib qonunlari"da Ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan mijoz konsepsiyasida inson mijoz oziq-ovqat mijoz bilan mos kelishi lozimligi keltirilgan. Aks holda, turli kasalliklar rivojlanishi mumkin. Shuning uchun shifokorning qat'iy nazoratiga amal qilgan bemor kun tartibi va parhezga doir tavsiyalarga aniq rioya etsa, o'zining shu muolajalar orqali tuzalishiga ishonsa, albatta, shifo topadi.

"Tib qonunlari" asarida mintaqamizda o'sadigan ko'plab shifobaxsh giyohlarning nomlari tilga olingan. Bugun ana shu giyohlarning 80 – 85 foizining nomini tabobat ilmi bilimdonlari yaxshi biladi va undan samarali foydalanadi. Lekin ko'p o'simlik va giyohlar ilmiy nomi bilan atalganligi sababli insonlar ulardan oqilona foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular yordamida davolanish, ochig'ini aytish kerak, dorixonadan falon pulga olingan dorilarga nisbatan arzonroq va ko'p hollarda xavfsizroq bo'ladi. Masalan, yo'tal va shamollashda tayyorlanadigan turli o'simliklarning damlamalari bemorga juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Birgina bosh og'rig'ini oladigan bo'lsak, ularni davolashda ishlatiladigan 200 dan ortiq turdagi tabletkalar bor. Aslida buni oddiy andiz yoki arabadoniy bilan davolash kutilgan samarani berdi. Endi qarang, yuqorida aytilgan tabletkalar

tarkibida og'riq qoldiruvchi yoki isitma tushiruvchi moddalar bilan birga, bir qancha zararli kimyoviy birikmalar bor. Shifokor grippga uchragan bemorga bir antibiotik ta'sir qilmasa, boshqasini beradi, agar u ham naf bermasa, yana boshqasini tavsiya etadi. Bu esa, o'z-o'zidan, bemorning boshqa organlariga nojo'ya ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois ko'plab kasalliklarni, ayniqsa, shamollash, tumov va grippi faoliy malhamlar, dorivor giyohlar vositasida davolash maqsadga muvofiq.

Aslini olganda, birorta o'simlik yo'qki, uning dorivorlik xususiyati bo'lmasa. Ta'kidlaganimizdek, faqat buni hamma ham bilavermaydi. O'simlikning dorivorligini belgilaydigan narsa ularning tarkibidagi biologik faoliy moddalardir. Bu moddalar har bir o'simlikda u yoki bu sifatda, ko'rinishda va miqdorda bo'ladi. Mana, oddiygina isiriqni oling. Bu dorivor giyoh yurtimizning qiradilarida, tog'larning quyi qismlarida, qumloq, toshloq va tuproqli joylarda yovvoyi o't sifatida o'sadi. U ko'p yillik bo'lib, bo'yi 20 – 60 sm.gacha bo'ladi. Xalq tilida "ming bir dardga davo" deb nom olgan gijohni Ibn Sino bobomiz

Dorivor giyohlardan malham sifatida foydalanishda tabiblar tomonidan tavsiya etilgan aniq ko'rsatmalarga, albatta, amal qilish kerak. Bunda me'yorlar, tartiblar buzilsa, davolanishda kutilgan samarani olish qiyin.

quymich nervlari shamollashda, tizza va suyaklar qaqshab og'riganida og'riq qoldiruvchi dori sifatida tavsiya etgan.

Biroq dorivor giyohlardan malham sifatida foydalanishda tabiblar tomonidan tavsiya etilgan aniq ko'rsatmalarga, albatta, amal qilish kerak. Bunda me'yorlar, tartiblar buzilsa, davolanishda kutilgan samarani olish qiyin. Jarayonda malhamning miqdori, iste'mol vaqti, holati, sifati, qo'yingki, har bir jihatiga jiddiy e'tibor qaratilishi shart.

Shamollash, yo'tal va virusli kasalliklarni davolashda foydalanish mumkin bo'lgan aniq malhamlar



TABIATNING O'ZI TABIB

haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagilarni tavsiya qilamiz.

Birinci navbatda, yuqorida aytil o'tganimizdek, behidan malham tayyorlaymiz. Buning uchun ushbu mevaning butunligicha ichi tozalanib, unga bir choy qoshiq asal va shuncha miqdorda sariyog' solinadi. Namlardan doka bilan o'ralib, keyin qo'rda pishiriladi. Undan har kuni 2-3-martadan iste'mol qilinsa, shamollash, gripp kabi kasalliklar bilan og'rigan bemorlar tezda shifo topadi.

Ikkinchi usul: otquloq o'simligidan bir osh qoshig'i choynakka solinib, ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, bir oz damlab qo'yiladi. Keyin suzib olinib, kuniga 3-4 mahal ichiladi.

Yana bir yo'li: qushtaron

bo'ladi. Ba'zan nafas yo'llari shilliq qavatining qichishishidan yoki bezovtalanishi va zo'riqishidan ham yuzaga keladi.

Nafas yo'llari kasalliklari ichida eng ko'p uchraydigan shamollash oqibatida yuzaga keladigan yo'taldir. Bemorlarda yo'tal quruq va nam holatda kuzatiladi. O'tkir respiratorli virusli infeksiyaning boshlang'ich bosqichida quruq yo'tal kuzatilsa, so'ngra u balg'amning xususiyatlari o'zgarib borishiga ko'ra nam yo'talga aylanadi. O'tkir va surunkali bronxit, zotiljam, bronxial astma va sil kasalliklarida nam yo'tal bezovta qiladi.

Yo'tal bir qarashda aniq bo'lmagan sabablar tufayli kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun ham uning sababini aniqlash zarur. Bu kasallikni tashxislashga yordam beradi va samarali davolash usulini belgilashda asqatadi. Yo'talni davolashda faqat uning kelib chiqish sababi emas, balki quruq yoki namligi ham inobatga olinadi.

Yo'talni davolashda zamonaviy tibbiyot ko'rsatmalari bilan bir qatorda xalq tabobati usullaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, bir dona olma mayda to'g'rab, choynakka solinadi va ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi. 1-2 soat damlab qo'yiladi. Ovqatdan so'ng kuniga 3-4

mahal bir stakandan ichiladi.

Yana bir usul: 10 dona piyoz mayda to'g'raladi va bir bosh sarimsoq qo'shib sutda qaynatiladi. Ta'bga qarab asal qo'shiladi. Bir kun har soatda bir osh qoshiqdan ichiladi. Uzum mayizi, o'rik qoqi va asaldan aralashma tayyorlanadi. Ushbu aralashmadan 2-3 mahal iste'mol qilish organizm immunitetini ko'tarish bilan birga, yo'tal va boshqa yallig'lanish kasalliklarini davolashda va oldini olishda yaxshi samara beradi.

Shuningdek, kattaroq turp ildizmevasi po'stini archmagan holda, tubi olinib, ichida kavak hosil qilinadi va bir choy qoshiq toza asal solib, 8 – 10 soat usti yopilgan holda saqlanadi. 5-6 kun davomida erta tongda ovqatdan oldin ushbu asalni ekstrakti ilitib ichish yo'talni davolashda juda yaxshi samara beradi.

Bolalar yo'talga chalinganda bir dona olma, bir dona kartoshka va bir bosh piyoz olib, bir litr suvda yarmi qolguncha qaynatiladi. So'ng suzib, kuniga 3 mahal, bir osh qoshiqdan ichiriladi. Bolgariyalik tabib Vanga ham turli shamollash kasalliklarini davolash va oldini olishda asrlar davomida sayqallangan xalq tabobatining shu kabi usullaridan foydalanishni tavsiya etgan.

Xalqimiz "Tabiatning o'zi tabib", deb bejiz aytmagan. Bugun zamonaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan sintetik dorilar, antibiotiklar, biz iste'mol qilishga o'rganib qolgan qo'shimcha moddali, geni o'zgartirilgan ozuqalar, oziq-ovqat sanoatining tayyor mahsulotlari inson himoya tizimini muvozanatdan chiqaradi. Buni hamma bilishini istardim. Shuning uchun bugun o'zimiz va kelajak avlodlarimizning sog'lig'ini o'ylaydigan bo'lsak, ularni turli kasalliklardan muhofaza etishni istasak, bunaqa dorilar va moddalardan voz kechishimiz lozim. Buning o'ranga ona tabiat mahsulotlarini iste'mol qilsak, biror joyimiz og'riganida tabiiy ne'matlardan foydalanib davolansak, o'zimiz ham, naslimiz ham darddan forig' bo'lib, sog'lom hayot kechiramiz.

Ibrohimjon ASQAROV,
O'zbekiston tibbiy-ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar "Tabobat"
akademiyasi raisi, kimyo fanlari doktori, professor.

PEKJAMA

xalqaro talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda. Xodimlar o'rtasida halollik, mas'uliyat va xizmat madaniyatini oshirish, aholiga sifatlari, tezkor va shaffof xizmatlar ko'rsatish orqali bank tizimining ishonchligi va samaradorligi yildan-yilga ortib bormoqda.

"Agrobank" ATB tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda yo'lga qo'yish, halollik va shaffoflik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish borasida olib borilayotgan izchil ishlar bankning barqaror rivojlanishiga, mijozlar ishonchini yanada mustahkamlashga va xalqaro maydonda ishonchli hamkor sifatida e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusida ham bank jamoasi korruptsiya xavf-xatarlarni kamaytirish, ochiqlikni ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish hamda halollik madaniyatini yanada rivojlantirish yo'lida tizimli faoliyatni davom ettiradi.

"Agrobank" ATB
Kompyans nazorat departamenti.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO STANDARTLARGA MOS TIZIMI SARI

Korruptsiya taraqqiyot kushandasi ekani barchamizga ma'lum. U keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlardan nafaqat biron tashkilot yoki jamoa, balki butun boshli jamiyat aziyat chekishi, uning rivojlanishi ortga surilishi mumkin.

Shu bois ham so'nggi yillarda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar bank tizimi faoliyatida ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda.

Moliya muassasalarida

"Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan ham xalqaro standartlarga mos, ochiq va shaffof boshqaruv tamoyillariga asoslangan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish yo'lida tizimli va natijador ishlar olib borilmoqda.

Bank faoliyatida korruptsiya holatlarning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, halollik, mas'uliyat va xolislik tamoyillarini mustahkamlash maqsadida korruptsiyaga

qarshi kurashishning xalqaro standartlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xalqaro tajribalar o'rganilib, ilg'or amaliyotlar asosida ichki nazorat tizimi mustahkamlanmoqda. Jumladan, bankda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va FATF tavsiyalariga muvofiq, xavf-xatarlarni baholash, ichki nazoratni kuchaytirish hamda halollik madaniyatini rivojlantirishga

qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda xalqaro amaliyotni o'rganish va malakali kadrlar tayyorlash muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda xodimlar malakasini oshirish va xalqaro tajriba almashish bo'yicha doimiy o'quv dasturlari yo'lga qo'yilgan. Bankning kompyans nazorat va korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi mutaxassislari Chexiya va Buyuk Britaniya davlatlarida tashkil etilgan o'quv kurslarida qatnashib, ilg'or xalqaro yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilmoqda.

Bankda xalqaro standartlar asosida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi joriy etilishi yuqori bosqichga olib chiqildi. Xususan, ISO 37001:2016 – "Anti-Bribery Management System" xalqaro standartlari talablari bo'yicha "Cert International" tashkiloti ishtirokida tashqi audit o'tkazildi. Natijada bankning

Bosh ofisi va Toshkent shahar filiali mazkur standart talablariga to'liq mos deb topildi hamda sertifikat bilan tasdiqlandi. Bu "Agrobank" uchun nafaqat ichki boshqaruvni takomillashtirish, balki xalqaro miqyosda ishonchli va halol moliya instituti sifatida e'tirof etilish imkonini yaratdi.

Ochiqlik va shaffoflik – korruptsiyaga qarshi kurashishning eng muhim omillaridan biri sifatida bank faoliyatida ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Bankning rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar bo'limi yo'lga qo'yilib, unda bank faoliyati, moliyaviy ko'rsatkichlar, kompyans tizimi va korruptsiyaga qarshi dasturlar muntazam e'lon qilib borilmoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xalqaro mezonlar asosida ishlab chiqilgan "Ochiqlik indeksi" natijalariga ko'ra, "Agrobank" ATB 78,7 ball

bilan "yashil" toifada baholalanib, mamlakat tijorat banklari o'rtasida 3-o'rinni egallagan bankning ochiqlikni ta'minlash yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari natijasini ifoda etdi. Bu natija bank faoliyatining ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini baholash maqsadida BMT Taraqqiyot dasturi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Koreya Respublikasi hamkorligida ishlab chiqilgan "e-anticorrupt" elektron tizimi orqali bank faoliyati baholandi. Mazkur reyting natijalariga ko'ra, "Agrobank"ning korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi 83 ball bilan "yaxshi" toifasida qayd etildi.

Bugungi kunda "Agrobank" tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari



KAMONCHILARIMIZ ILK BOR OSIYO CHEMAPIONATI SHOHSUPASIDA

Bangladeshda kamondan otish bo'yicha Osiyo chempionati o'tkazildi. Ahamiyatlisi, unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ilk bor qit'a birinчилиligida sovrindor bo'lishdi.



Mikst dasturida "Parij – 2024" Olimpiadasi ishtirokchilari – Amiron Sodikov hamda Ziyodaxon Abdusattorova juftligi finalgacha yetib borib, kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, yigitlarimiz jamoaviy bellashuvda Qozog'istondan ustun kelib, bronza medallarga ega chiqdi.

OZODA SOBIRJONOVA – ISLOM BIRDAMLIGI O'YINLARI G'OLIBI

"Ar-Riyod – 2025" Islom birdamligi o'yinlari bellashuvlarida hamyurtlarimiz taekvondo WT bahslarida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Xususan, sportchimiz Ozoda Sobirjonova O'zbekiston delegatsiyasiga oltin medalni taqdim qildi. -70 kg. vazn toifasida bahs olib borgan taekvondochimiz finalda eronlik raqibidan ustun kelib, musobaqa g'olibiga aylandi.

Shuningdek, kecha start berilgan bahslarda sportchilarimiz yengil atletika, para yengil atletika, qilichbozlik hamda taekvondo bo'yicha bellashuvlarda ishtirok etdi.



KUHLILAR SARALANDI

Andijon Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi mezbonlik qilgan o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionati o'z yakuniga yetdi.



Mamlakat birinчилиligining so'nggi kuni og'ir vazn toifasida bellashuvlar tashkil etildi. O'smirlar -90, +90, qizlar esa -70, +70 kg. vazn toifalarida tatamiga chiqdi. To'rtta vaznda – ikkitasida xorazmlik dzyudochilar, qolgan ikkitasida Buxoro viloyati hamda Toshkent shahri vakillari chempionlik shohsupasiga ko'tarildi.

Uch kunlik bellashuvlar yakuniga ko'ra, Xorazm viloyati dzyudochilari medallar jamg'arish bo'yicha umumjamoa hisobida birinchi o'rinni band etdi. Ular 5 ta oltin, 5 ta kumush, 7 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

Toshkent shahri jamoasi 2 ta oltin, 2 ta kumush, 4 ta bronza medali bilan ikkinchi o'rinni band etgan bo'lsa, 2 ta oltin, 1 ta kumush, 3 ta bronza medaliga ega Toshkent viloyati dzyudochilari kuchli uchlikka yakun yasab berdi.

"Xalq so'zi".

2026-yil 1-yanvardan YTTlarga firma nomiga ega bo'lishga ruxsat beriladi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatcheshi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6